

## Sohibqiron chorlovi

Har bilmida dong qozongan sohibqiron yodi hamisha yodimizda bo'lishi aniq. Ziyoratgoh va muborak qadamjolar ziyoratida inson ruhiyatining poklanishi, ulug' ajdodlardan ichki kuch va g'ayrat olish hissi borligiga shubha yo'q. Shunday ekan, ziyorat bilish va anglash bobida katta ma'lumotlar manbaidir.

Vatanimiz iftixori buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temurning hayoti va yurishlari, markazlashgan davlat uchun olib borgan sa'yi harakatlari bilan talaba yoshlarni yaqindan tanishtirish, bobomiz buyuk sarkarda siyosida yoshlar qalbida vatanga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytirish maqsadida Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti Xotin - qizlar qo'mitasi raisasi N.Xolikovaning rahbarligida fakultetning talaba - qizlari shahrimizda joylashgan Temuriylar tarixi muzeyiga tashriflari uyushtirildi.

Sayohat davomida talaba - qizlar ruhan tetiklik va vatanga bo'lgan muhabbat hislari yanada mustahkamlandi. Sohibqiron go'yo ajdodlarga munosib bo'ling aziz avlodlarim degan da'vat bilan yoshlarga murojaat qilgandek bo'ldi.



QXM fakulteti ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinosari I.Raximov axboroti  
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov